

мирового рынка предопределяет необходимость создания новых и совершенствование существующих пород путем разработки и внедрения эффективных методов селекционно-племенной работы, биотехнологии, технологии производства и переработки продукции и систему полноценного кормления коз.

Для координации процессов производства, заготовки, переработки и реализации продукции козоводства, направлении селекционно-племенной работы с поголовьем коз в целом по республике целесообразно создание Ассоциации или других форм её разновидностей на основе объединения научных учреждений, аграрных вузов, сельхозпроизводителей в пределах отдельных регионов. Необходимо также обеспечить подготовку специалистов по козоводству на основе учебных заведений и соответствующих курсов по повышению квалификации работников сельскохозяйственного производства.

Список использованной литературы

1. Арынгазиев Б.С. Технология производства козьего молока в условиях мелкотоварных хозяйств юго-востока Казахстана // Автореф. дисс. ... канд. с.-х. наук. – Шымкент, 2004. – 24 с
2. Асильбекова Г.К., Нуркаев К. Сезонные колебания качества семени козлов – производителей // Селекция и технология
3. Бабаджанов А.Н. Качество шерсти – основной показатель шерстной продуктивности у советских шерстных коз // Тр. Узб. НИИ животноводства, - Ташкент, 1989, вып. 54. – С. 59-63.

UO‘K: 636.084-637.52

JAYDARI ZOTLI QO‘CHQORCHALARNI JADAL O‘STIRISH VA ULARNING GO‘SHT MAHSULDORLIGI

D.M.Parmanova–ilmiy kotib, q-x.f.f.d (PhD)., K.I.X.,
dilnozaparmanova45@gmail.com,

Sh.A.Shoxnazarova-tayanch doktorant (PhD).,
shohnaza16@gmail.com

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada jaydari zotli qo‘chqorchalarni xo‘jalik sharoitida boqish va qo‘shimcha oziqlantirishdan keyingi go‘shht mahsuldorligi va nazorat so‘yimi natijalari to‘g‘risidagi tajriba ma‘lumotlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘chqorchalar, ratsion, oziqlantirish, go‘shht mahsuldorligi, so‘yim, ichki organlar, ovqat hazm qilish a‘zolari.

Annotation. The article presents experimental data on the results of meat production and control slaughter after fattening and supplementary feeding of Jaidari rams in farm conditions.

Key words: rams, ration, feeding, meat productivity, slaughter, internal organs, digestive organs.

Kirish. Xo‘jaliklarda qo‘zi go‘shhti ishlab chiqarishda yosh organizmning o‘shish energiyasidan unumli foydalanishga asoslangan holda ularni jadal o‘stirish, yayratib boqish, bo‘rdoqilashda qo‘y sig‘imini kamaytirishning samarali tizimini va texnologik uslubini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Jadal usulda qo‘y go‘shhti yetishtirish aholining arzon, to‘yimli va parhezboq go‘shhtga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirish hamda qo‘ychilik xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda dolzarb hisoblanadi.

Qo'ylarning go'sht mahsuldorligiga juda ko'plab omillar ta'sir qiladi. Ularning eng muhimlaridan biri oziqlantirish omili, ayniqsa ratsiondagi to'yimli moddalarning miqdori va sifati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hayvonlarning go'sht mahsuldorligini baholashda ularning so'yim sifatini belgilovchi, go'sht va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida olinadigan massaning hajmi, chiqimi va uning sifatiga alohida ahamiyat beriladi. To'qimalar va yog' to'planishining notekis o'sishi ularning miqdori va chiqimining bir xilda bo'lmasligini ifodalaydi. Shu sababli qo'zilar 4,5-5 oyligidan boshlab to'yimli oziqalar bilan qo'shimcha oziqlantirishda ularning go'sht mahsuldorligi xususiyatlarini o'rganish va so'yim sifati o'zgarishlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur zotning go'sht mahsuldorligi, tez yetiluvchanligi bo'yicha irsiy potensialini, qo'ylarni go'shtga so'yishning biologik jihatdan maqsadga muvofiqliligini va iqtisodiy samarali muddatlarini, qo'ylarni go'shtga tayyorlashda o'tkazilgan tadbirlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tanada shakllangan to'qimalarning nisbiy o'sish qonuniyatlarini bilish qo'ychilikda go'sht ishlab chiqarishni jadallashtirish, kam xarajat sarflab, ko'p va sifatli mahsulot yetkazishning samaradorligini oshiradi [1].

Tadqiqot maqsadi. Qo'ylarning go'sht mahsuldorligini oshirishda xo'jalik sharoitida va qo'shimcha to'la qiymatli ratsion asosida bo'rdoqilash orqali go'sht mahsuldorligini oshirish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot uchun jaydari zotli erkak qo'zilar olinib, nazorat va tajriba guruhi shakllantirildi. Tadqiqotdagi barcha hayvonlarni asrash va oziqlantirish, sharoitlari, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, fiziologik holati va tirik vaznini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Tajriba va nazorat guruhidagi qo'ylarga me'yor belgilab ratsion tuzildi [2].

Oziqlantirishning go'sht mahsuldorligiga ta'siri, qo'chqorchalarni bo'rdoqilashda oziqlantirish texnologiyasi qo'chqorchalarga berilgan ozuqalar ratsionining to'yimlilikini o'rganishda (A.A.Vekaminov)ning "Qo'ylarning mahsuldorligini o'rganish" bo'yicha metodik tavsiyalar, oziqlantirishda asosiy ozuqaviy va energiya moddalarni hisoblashdan foydalaniladi.

Qo'ylarning go'sht sifatini aniqlash uchun bo'rdoqilangandan so'ng butun Rossiya Chorvachilik ilmiy-tadqiqot usulida tirik vazni va semizlik darajasi bo'yicha bir xil va o'z guruhi uchun tirik har bir guruhdan uch boshdan o'rtacha ko'rsatkichlarga ega qo'ylarda Gost 7595-81. (Qo'y va echkilarni go'sht sifatini baholash) bo'yicha o'rganiladi [4].

So'yishda so'yim chiqimi, nimta go'shti, ichki yog' vazni, go'shtning morfologik tarkibi aniqlanadi. So'yim chiqimi so'yim vaznini so'yim oldi tirik vazniga nisbatining foizlardagi ifodasi bilan aniqlanadi. Go'shtning morfologik tarkibi go'shtni nimtalash yo'li bilan aniqlanadi.

Olingan ma'lumotlar dala daftariga qayd qilinib boriladi. Birlamchi ma'lumotlar A.A.Ploxinskiyning "Zootexniklar uchun biometriya bo'yicha qo'llanma", "O'rtacha arifmetik qiymat usullaridan foydalangan holda qayta ishlanadi [3].

Tadqiqot natijalari. Qo'zilar xo'jalik sharoitida oziqlantirish tizimini, rejimini hamda qo'shimcha oziqlantirishning ilmiy asoslangan me'yorlarini va miqdorini aniqlash uchun qo'ylarning qancha va qanaqa sifatidagi ozuqalarni iste'mol qilishlarini bilish qo'zilar oziqlantirishning to'la qiymatli ratsionini tuzish va hayvonlar organizmini talab etiladigan to'yimli ozuqa va moddalar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Nazorat va tajriba guruhidagi onasidan ajratilgan erkak qo'zilar uchun oziqlantirish ratsioni tuzildi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tirik vazni 30-40 kg bo'lgan bo'rdoqilanayotgan Jaydari zotli 4,5-5 oylik qo'zilarga beriladigan ratsion strukturasi ko'ra pichanlar 41%, konsentrat ozuqalar 59% ni tashkil etdi.

1-jadval

**Nazorat guruhidagi onasidan ajratilgan qo'chqorchalar uchun
oziqlantirish ratsioni (4,5-5 oylik)**

Ozuqa turi	Ozuqa miqdori	Ozuqa birligi	Almashi-nuvchi energiya	Quruq modda	Xom protein	NaCl	Ca	P
	kg	kg	MDj	kg	g	g	g	g
Ozuqa meyor		1,15	12,7	1,15	215	6	6,5	6,0
Beda pichani	1,2	0,53	8,34	1,0	121	-	12	2,64
Arpa doni	0,5	0,57	5,6	0,425	56,5	-	1	1,95
Bug'doy kepagi	0,25	0,19	2,35	0,212	38	-	0,5	2,4
Osh tuzi	0,006	-	-	-	-	6	-	-
Dinatri fosfat	0,025	-	-	-	-	-	-	5,5
Jami		1,29	16,29	1,64	215,5	6	13,5	12,49
Meyorga nisbatan farqi±		+0,14	+3,59	+0,49	+0,5	0	+7	+6,49

Ratsionda 100 kg tirik vaznga 4,1 kg quruq modda, kalsiyni fosfoga bo'lgan nisbati 1,1:1 ni tashkil etdi.

2-jadval

**Tajriba guruhidagi onasidan ajratilgan qo'chqorchalar uchun
oziqlantirish ratsioni (4,5-5 oylik)**

Ozuqa turi	Ozuqa miqdori	Ozuqa birligi	Almashi-nuvchi energiya	Quruq modda	Xom protein	NaCl	Ca	P
	kg	kg	MDj	kg	g	g	g	g
Ozuqa meyor	1,15	12,7	1,15	215	6	6,5	6,0	1,2
Beda pichani	1,2	0,53	8,34	1,0	121	-	12	2,64
Best Mega Mix	0,7	0,74	7,39	0,63	94	-	8,2	2,94
Osh tuzi	0,006	-	-	-	-	6	-	-
Dinatri fosfat	0,025	-	-	-	-	-	-	5,5
Jami		1,27	15,73	1,63	215	6	20,2	11,08
Meyorga nisbatan farqi±		+0,12	+3,03	+0,48	0	0	+13,7	+5,08

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tirik vazni 30-40 kg bo'lgan bo'rdoqilanayotgan Jaydari zotli 4,5-5 oylik qo'zilarga beriladigan ratsion strukturasi ko'ra pichanlar 42 %, konsentrat ozuqalar 58 % ni tashkil etdi. Ratsionda 100 kg tirik vaznga 4,1 kg quruq modda, kalsiyni fosfoga bo'lgan nisbati 1,8:1 ni tashkil etdi.

Quyidagi jadvalda qo'chqorchalarning go'sht-yog' mahsuldorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

Jaydari zotiga mansub nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorchalarning go'sht-yog' mahsuldorligi, (n=3 bosh)

Guruh-lar	So'yim oldi tirik vazni, kg	Nimta vazni, kg	Tirik vazniga nisbatan %	Ichki yog'i, kg	Tirik vazniga nisba- tan, %	Dumba yog'i, kg	Tirik vazniga nisba- tan, %	So'yim	
								Vazni, kg	Chiqi- mi, %
6,0 oylik davrida									
Nazorat	37,3	15,2	40,9	0,5	1,5	1,7	4,7	17,4	46,6
Tajriba	41,7	17,2	41,3	0,5	1,3	2,1	5,0	19,8	47,5

Jaydari zotiga mansub 6,0 oylik nazorat guruhidagi qo'chqorchalarning so'yim oldi vazni 37,3 kilogrammni tashkil etib, tajriba guruhidagi qo'chqorchalarning so'yim oldi vazni 41,7 kilogrammni tashkil etdi. Tajriba guruhi nazorat guruhidagi qo'chqorchalarni 4,4 kg ortda qoldirdi. Nimta vazni bo'yicha farq 2,0 kg ni, ichki yog' miqdori ko'rsatkichi sezilarsiz bo'ldi.

Tajriba guruhidagi qo'chqorchalar dumba yog'i vaznidagi farq nazorat guruhidan 0,4 kg ko'p, tajriba guruhidagi qo'chqorchalar go'shti va yog'ining so'yim vazni 19,8 kg bo'lib, nazorat guruhidagi qo'chqorchalarga qaraganda 2,4 kilogrammga yuqoriligi qayd etildi. Eng yuqori so'yim chiqimi ko'rsatkichi tajriba guruhidagi qo'chqorlarda kuzatilib, 47,5 foizni tashkil etgani holda, nazorat guruhidagi qo'chqorlardan 0,9 foizga ustunlik qilgani aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhidagi qo'chqorchalarni to'yimli ratsion asosida qo'shimcha oziqlantirilganda, nazorat guruhidagi qo'chqorchalarga nisbatan go'sht-yog' mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ustun bo'lishini ta'minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraxmonov A.N. Dissertatsiya. Qorako'lchilikda qo'zi go'shtini yetishtirish va uning resurslarini oshirish texnologiyasi. Samarqand-2011.
2. Kalashnikov A.P., Kleymenov N.I. Chorvachilikda oziq normalari va ratsionlari. Toshkent-"Mehnat"-1988. 175 b.
3. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. -256 с.
4. ГОСТ 7595-81 Qo'y va echkilarni go'sht sifatini baholash. Москва 1981.
5. Kh K. A. Growth and Development of Young Karakul Sheep of Different Ethological Types //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – T. 12. – C. 22-25.
6. Xatamov A. Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors //Scienceweb academic papers collection. – 2021.

UO'K: 636.084-637.52

JAYDARI ZOTLI QO'CHQORCHALARNI SO'YIM KO'RSATKICHLARI

D.M.Parmanova-ilmiy kotib, q-x.f.f.d. (PhD)., K.I.X.,
dilnozaparmanova45@gmail.com,

Sh.A.Shoxnazarova-tayanch doktorant (PhD).,
shohnzo16@gmail.com

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Jaydari zotli qo'chqorchalarni xo'jalik sharoitida boqish va qo'shimcha oziqlantirishdan keyingi nazorat so'yimi natijalari to'g'risidagi tajriba ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: qo'chqorchalar, oziqlantirish, so'yim, ichki organlar, ovqat hazm qilish a'zolari.

Annotation. The article presents experimental data on the results of control slaughter after fattening and supplementary feeding of Jaidari rams in farm conditions.

Key words: rams, feeding, slaughter, internal organs, digestive organs.

Kirish. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini qo'ychilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, xo'jaliklarda sifatli qo'y go'shti ishlab chiqarish, qo'ylarni bo'rdoqilash texnologik uslubini ishlab chiqish, aholining arzon, to'yimli va parhez bop go'shtga bo'lgan talabini to'laroq qondirish hamda qo'ychilik xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.